

**SAID AHMADNI „UFQ” ROMANINI TARJIMA QILISHDA DUCH KELADIGAN
MUAMMOLAR**

Ashrafxonova Begoyimposhsha Saidumarxon qizi

Farg’ona Davlat Universiteti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

G’afurova Nozima Ikromovna

Farg’ona Davlat Universiteti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti kata o’qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola o’zbek adabiyoti durdonalaridan biri Said Ahmad qalamiga mansub “Ufq” asarini o’zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida sodir bo’lgan bir qancha punktiatsion va leksikologik transformatsiyalarni tahlil qilamiz va tarjima jarayonida duch keladigan muammolarni aniqlaymiz.*

Kalit so’zlar: *tarjima, badiiy tarjima, leksikologik transformatsiyalar, orfologik transformatsiyalar, ufq, gramatik transformatsiya, punktiatsion transformatsiya.*

KIRISH

Tilshunoslik yoki lingvistika tillarni o’rganuvchi fandır. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo’lib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi (grammatikasi) va uning ma’nosi (semantikasini) o’rganadi. Grammatika morfologiya (so’zlarning tuzilishi va o’zgarishi), sintaksis (so’zlarning iboralarga va gaplarga biriktrilish qoidalari) va fonologiya (tilni abstrakt tovushlar yordamida o’rganish) fanlarini qamrab oladi Said Ahmad – nasrnafis va dramaturg, o’zbek adabiyotida kichik nasr – hikoya ustasi sifatida tanilgan. Uning ko’plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo’shdi. Milsiz xizmatlari uchun Said Ahmad “Buyuk xizmatlari uchun” va “Do’stlik” ordenlari hamda “O’zbekiston qahramoni”, “O’zbekiston xalq yozuvchisi”, “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi” sharafli unvonlariga sazovor bo’lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ufq trilogiyasi – O’zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad (asl ism –sharifi – Saidahmad Husanxo’joyev) qalamiga mansub 1964-1974-yillar oralig’ida yozilgan uch qismdan iborat roman. Ilk marotaba 1976-yilda G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan 60000 nusxali qattiq muqovada nashr etilgan. Trilogiya ikkinchi jahon urushi, urush va urushdan keyingi yillardagi o’zbek millati hayoti va Katta Farg’ona kanali qazilgan davrdagi voqealarni o’z ichiga oladi.

NATIJALAR

Mazkur maqolada “Ufq” asarini o’zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida bu ikki til boshqa boshqa til oilalariga mansub bo’lgani sababli ko’plab leksikologik va morfologik transformatsiyalar sodir bo’lgan. Leksikologik

transformatsiyaga misol tarzida faqat o'zbek tiligagina xos bo'lgan erkalash, va ma'nosi yaxshilik tilash kabi so'zlar bilan koyinish so'zlari, so'z birikmalari yoki gaplarni tarjima qilish va konseptdagi aynan ma'nosini tarjimada o'quvchiga yetkazib berish katta qiyinchiliklar tug'diradigan muammolar juda ko'p uchraydi. Va aynan shu kabi muammolar tarjima jarayonidagi leksikologik transformatsiyalar yuz berishiga sababchi bo'ladi.

MUHOKAMA

Ushbu asarni tarjima qilish jarayonida turli xil transformatsiyalar yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, morfologik transformatsiya, sintaktik transformatsiya, punktiatsion transformatsiya va grammatik transformatsiyalar ham mavjud. Ikki til bir biriga qardosh til bo'lmaganligi yoki bir-biridan umuman farq qilganligi sababli transformatsiyalarning aksariyati Punktuatsiya bo'limiga to'g'ri keladi. Misol uchun asardagi ushbu gapda punktiatsion transformatsiyaga uchragan gaplarni ko'rib chiqishimiz mumkin. O'zbekcha: -Yana suvga tushaman, bildingmi ! Sen aralashmay tur!

Inglizcha: "I will go into the water again, you know, don't interfere!"

Ushbu gapda bir emas bir nechta transformatsiyalar foydalanilganini ko'rishingiz mumkin. Masalan, so'z ortishi bilan bog'liq (leksikologik transformatsiya). Hamda so'roq gap tarjimada darak gapga aylangan. Shuningdek orfografik transformatsiya ham yuz bergan. "og'irroq bo'ling" o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganda "be more patient" deya tarjima qilinadi. Yani "sabrliroq bo'ling" degan manoni anglatadi, va bu leksikologik transformatsiyaga misol bo'ladi.

XULOSA

Mazkur maqola yozilishining asosiy sabablaridan biri o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti orasidan joy egallashiga hissa qo'shish uchun qo'yilyotgan ulkan qadamlardan biri deyish mumkin. Yani tarjima qilinayotgan asar haqida va asar muallifi haqida oz bo'lsada ma'lumot yetkazishdir.

REFERENCES

1. <https://arboblar.uz/uz/people/said-akhmad>
2. Solijonov Juraali Kamoljonovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English.
3. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
4. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). Ta'lim fidoyilari, 18(5), 32-37.

5. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI"("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. InМЕЖДУНАРОДНАЯНАУЧНАЯКОНФЕРЕНЦИЯ:"СОВРЕМЕННЫЕФИЛОЛОГИЧЕСКИЕПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕТРАДИЦИИИИННОВАЦИЙII" (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
5. Abarjon o'g'li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 216-219.
6. Abarjon o'g'li, A. A. (2022). SHAHARLASHUV JARAYONINI ATROF-MUHITGA TA'SIRI. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(14), 70-73.
7. Madaminovna, K. S., Furkatovna, G. M., & Adakhamjon, A. (2023). SIGNIFICANCE OF SOIL FERTILITY IN FERGANA REGION. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1320-1324.
8. Халматова, Ш., Усманова, Т., & Акрамов, А. (2022). Экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир. theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 547-554.
9. Xalmatova, S., Gaybullayeva, M., & Akramov, A. (2022). O 'SIMLIKLAR OLAMIGA INSON FAOLIYATINING SALBIY TA'SIRI, HAMDA UNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 947-953.
10. Xalmatova, S., & Akramov, A. (2022). KIMYOVIY O 'G 'ITLAR TARKIBIDAGI TURLI MODDALAR ORQALI TUPROQLAR QATLAMINI IFLOSLASHI VA UNING OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 4-7.
11. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 195-198.